

## VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2025- yil yanvar-iyun)

	mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan % da
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>23 461 ,0</b>	<b>112,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	749,4	123,1	3,2
Moliyaviy xizmatlar	1 977,7	127,7	8,4
Transport xizmati	2 832,8	113,7	12,1
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	2 501,0	115,2	10,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	9 266,9	107,4	39,5
Savdo xizmatlari	4 462,9	114,1	19,0
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	349,0	109,4	1,5
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	881,6	97,8	3,8
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	425,5	114,8	1,8
Ijara va prokat xizmatlari	211,5	117,9	0,9
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	540,3	114,1	2,3
Boshqa shaxsiy xizmatlar	992,4	112,0	4,2
Me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	124,2	124,9	0,5
Boshqa turdagi xizmatlar	646,8	112,4	2,8

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni Yashash va ovqatlanish xizmatlari (39,0 %), savdo xizmatlari (19,0 %) transport xizmatlar (12,1 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,5 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (1,8 %) tashkil etgan.

**2025- yil yanvar-iyun oylarida bajarilgan xizmatlar tarkibi, (% da)**



2025- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 23 461,0 mlrd so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 114,1 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 19,0 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 113,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 12,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar 127,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 8,4 % ni tashkil etdi.


Shaxsiy xizmatlar 112,0 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa axborotlashtirish xizmati 123,1 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

Sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar 114,8 % ga oshgan boʻlib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.


### 2025- yil yanvar-iyun oylarida koʻrsatilgan xizmatlar tarkibi

(jami hajmga nisbatan, % da)



### Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi

(2025- yil yanvar-iyun, mlrd soʻm)




■ Hajm, mlrd soʻm

**Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**  
(2025- yil yanvar- iyun)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd so'm	2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	ming so'm	2024- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>23 461,0</b>	<b>112,0</b>	<b>100,0</b>	<b>7 459,6</b>	<b>109,7</b>
Namangan sh.	5 177,3	115,2	22,1	7 222,8	114,8
Mingbuloq	466,3	113,5	2,0	3 323,4	106,4
Kosonsoy	638,3	115,3	2,7	2 726,7	106,8
Namangan t.	675,4	113,7	2,9	3 409,4	105,6
Norin	563,7	114,3	2,4	3 135,0	106,9
Pop	792,3	113,8	3,4	3 293,1	105,3
To'raqo'rg'on	797,2	114,5	3,4	3 164,8	103,2
Uychi	721,5	112,3	3,1	3 023,7	106,8
Uchqo'rg'on	617,0	115,1	2,6	3 257,8	107,3
Chortoq	684,3	114,9	2,9	3 110,5	110,7
Chust	917,7	118,9	3,9	3 135,4	105,0
Yangiqo'rg'on	605,0	114,1	2,6	2 491,6	106,9


**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga**  
(2025- yil yanvar-iyun, ming so'm)



Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Chust tumanida 917,7 mlrd so'm (118,9 %) va Kosonsoy tumanida 638,3 mlrd so'm (115,3 %)ga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (7 222,8 ming so'm), Mingbuloq tumanida (3 323,4 ming so'm) va Namangan tumanida (3 409,4 ming so'm) qayd etildi.

### 2025- yil yanvar-iyun oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd so'm



Yuqori o'sish sur'atlari Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (123,1 %), Moliyaviy xizmatlar (127,7 %) va Ijara xizmatlar (117,9 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (88,3 %) egallaydi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 11,1 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2025- yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 58,9 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 21,9 % ga yetdi.

**2025- yil yanvar-iyun oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, % da**



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 19,2 % ni egallaydi.



- ☑ Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- ☑ Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- ☑ Avtomobil va motosikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar